



**TALABALARDA NUTQ MADANIYATINI EGALLASHNI SHAKLLANTIRISH
USULLARI.**

Hamrayeva Oynisa Farxod qizi.

*Farg'ona davlat universiteti Pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)*

Kalit so'zlar: Nutq madaniyatini egallash hozirgi davrning ahamiyat qaratish lozim bo'lgan dolzarb muammolaridan biridir. Bu muammoni hal etish umummadaniyatimiz taraqqiyoti, shuningdek, oliy maktablarda, o'rta maxsus o'quv yurtlarida, umumiy o'rta ta'lim maktablarda dars o'tish jarayonini yaxshilash bilan ham bogliq. Notiqlik san'ati sirlarini o'rganish, o'z fikrini bayon qila olish, til vositasini kerakli va lozim bo'lgan o'rinda qo'llash mantiqan barcha sohada xizmat qiluvchi har bir mutaxassis uchun, umuman, har qanday madaniyatli kishi uchun hayotiy zarurat deb hisoblanishi kerak. Ushbu maqolada adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda so'zlash, nutq madaniyati xususiyatlari, uni egallashning o'ziga xos jihatlari haqida fikr yuritilgan

Insonlar o'zaro fikr almashuv jarayonida til birliklaridan foydalanadilar. Har bir kishi tildan ehtiyojiga yarasha foydalanish ko'nikmasiga ega. Mana shu ko'nikma tufayli fikrini boshqalarga yetkaza oladi. Insonning nutqiy ko'rinishi uch turda namoyon bo'ladi. Bular so'zlash, mutolaa va eshitish. So'zlash deyilganda so'zlovchining ma'lumot, maslahat berish, buyurish, o'ziga noma'lum bo'lgan narsalar haqida so'rashini anglatadi. So'zlanganda so'zlovchining bilimi, madaniyati, odobi yuzaga chiqadi. So'zlash monologik va diologik ko'rinishda bo'lishi mumkin. Monologik nutqda bir kishining mulohazalari qarshi savollarsiz yoki javoblarsiz yuzaga chiqadi. Suhbatdosh tomonidan bo'linmaydi. Diologik nutqda muloqot qiluvchi navbat bilan goh tinglovchi, goh so'zlovchi vazifasida bo'ladi. Mutolaa o'quvchining yozma nutq orqali asar muallifi, obrazlari bilan muloqotidir. Mutolaa tufayli o'quvchi yozma nutqda aks etgan voqea-hodisalardan xabardor bo'ladi. Mutolaa ma'lumot olishning eng muhim yo'lidir. Kishi o'qish orqali ma'naviy yetuklikka erisha boradi. Shaxsning o'zi egallagan tilni qay darajada bilishi uning o'z faoliyati, intilishi, hayotiy tajribasi hamda hayotiy ehtiyojiga bog'liq bo'ladigan masaladir. Odamlarning yoshlikdan ma'lum bir tilda so'zlay olishi tabiiy-shaxsiy qobiliyat hisoblanadi. Shuning uchun nutq madaniyati sohasi umuman ona tilida emas, balki jamiyat a'zolarini ona tilining madaniy shaklida gapira olishga o'rgatishni ko'zda tutadi. Tilning bunday shakli ma'lum bir milly

tilda gaplashuvchi kishilarning barchasi uchun mushtarak bo'lgan til – adabiy tildir. Bunda butun millat a'zolari uchun yagona bo'lgan adabiy tilda to'g'ri fikr almashishni shakllantirish maqsad qilinadi. Adabiy tilning mavjudligining o'zigina nutq madaniyatini tashkil etmaydi. Adabiy tildan, uning madaniylashgan vositalaridan bu tilda gaplashuvchi kishilar jamoasi o'z nutqiy faoliyatlarida foydalangandagina adabiy til mavjud nutqiy hodisaga, nutq madaniyatining kuchli vositasiga aylanadi. Masalan, hozirgi zamon o'zbek



adabiy tilida ta'lim-tarbiya ishlari olib boriladi, ilmiy va badiiy adabiyotlar nashr etiladi, gazeta va jurnallar chiqariladi. Radio va televideniye eshittirishlarida ushbu til me'yorlariga amal qilinadi. Yozma nutqda biz o'zbek tilining imlo qoidalariga, gapirganda esa adabiy talaffuz me'yorlariga amal qilamiz. Nutq madaniyati ijtimoiy-madaniy hayotning qonuniy talabi bo'lsa-da, uni egallash aslida har bir shaxsning madaniy saviyasi, ong va bilimiga bog'liqdir. Insonning nutqi uning erishgan madaniyat darajasini o'zida ifodalaydi. Nutq madaniyati sohasi, asosan, adabiy tilni egallaganlar, unda so'zlash va yozishni istovchilarni va yosh avlod nutqini to'g'rilashni ko'zda tutadi. Nutq madaniyati ma'lum madaniy va ma'naviy kamolot belgisi sifatida qaralar ekan, talaba yoshlarni avvalo, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda o'z nutqini shakllantirishga o'rgatmoq lozim bo'ladi va bu malakani shakllantirish ta'lim jarayonida alohida o'rin egallaydi. Adabiy til va uning me'yorlari birinchi navbatda oiladagi tarbiya, muloqot orqali o'zlashtiriladi. Demak, oila a'zolarining har biri, eng avvalo ota-onalar, adabiy til me'yorlarini yaxshi o'rgangan va unga amal qiladigan bo'lishi muhimdir. Shunda oilada ulg'ayayotgan farzandlarning nutqini nazorat qilish, nuqsonlarni to'g'rilab borish mumkin bo'ladi. Adabiy til va uning me'yorlarini singdirishda ta'lim maskanlarining o'rni beqiyos desak bo'ladi. Til va uning qonuniyatlari, nutq qoidalarini o'zbek tili va adabiyot darslarida o'qitiladi. Lekin bu jarayonda boshqa fanlarning ham ta'siri bo'ladi. Tarix, geografiya, astronomiya, biologiya darslari ham o'quvchilarda nutq madaniyati malakasining shakllanishida sezilarli rol o'ynaydi, negaki bu fanlarga oid darslar jarayonida o'quvchining lug'at boyligi oshadi, u gap tuzishning bir qator murakkab tiplarini tanlaydi va qo'llaydi. Tabiiy fanlardan dars beradigan pedagog o'zbek adabiy tilini yaxshi egallagan, so'zga usta, hozirjavob, o'zbek tilida ravon, namunali gapira oladigan bo'lsa, bunday o'qituvchi nutqini o'quvchi havas bilan tinglaydi, o'zi ham shunday gapirishga intiladi. Har bir kishi o'zidan yaxshiroq, ma'noli, ravon gapira oladigan, fikrini aniq, ta'sirchan, chiroyli bayon eta oladigan kishilar nutqiga havas bilan qarashi va unga taqlid qilishi mumkin. O'z namunali nutqi bilan tinglovchilarda tilga, nutq madaniyatiga qiziqish uyg'ota olgan o'qituvchi tahsinga sazovordir. "Qaysi fanni o'qitishidan qat'i nazar, o'qituvchining asosiy quroli, ta'bir joiz bo'lsa, ketmoni uning nutqidir. Ketmon o'tkir bo'lmasa, yerning ham, ketmonchining ham holiga maymunlar yig'laydi. Xuddi shunday, o'qituvchining nutqi o'tmas, nochor bo'lsa, uning bilimi qanchalik chuqur va tugal bo'lmasin, o'ziga ham azob, o'quvchi sho'rlikka ham azob. Ona tilida puxta, lo'nda va shirador nutq tuza olish malakasi va mahorati matematika o'qituvchisi uchun ham, ona tili o'qituvchisi uchun ham birday zaruriy fazilatdir. O'qituvchi go'zal, o'zini ham, so'zini ham qiynamaydigan ravon va iboralarga boy nutqi bilan o'quvchilarni mahliyo etib, bermoqchi bo'lgan bilimni yosh inson shuuriga osonlik bilan olib kiradi. Zotan, ona tili milliy ma'naviyatimizning, dunyoni teran idrok etishimizning zaminidir" ("Ma'rifat manzillari" N.Maxmudov, 28-bet). Adabiy tilni mustaqil shug'ullanish orqali ham o'rganish mumkin. Mustaqil shug'ullanish ikki xil amalga oshiriladi: Birinchisida kishi tegishli darslik va qo'llanmalar, lug'atlar orqali tilni o'rganadi, ikkinchisida badiiy adabiyotlarni ko'p mutolaa qilish, she'rlarni yod olish,





gazetajurnallar o'qish, televideniye va radioni tinglash nutq madaniyatining shakllanishiga ta'sir o'tkazadi. Mustaqil shug'ullanishda shaxs erkin bo'lib, uning faoliyati ham keng bo'ladi. Shaxs o'zi xohlagan adabiyotlar, vositalarga murojaat qilishi, vaqtini ham o'zi taqsimlash, belgilash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli nutq madaniyatini egallashning bu yo'li muhim sanaladi, chunki bunda adabiy til normalari ongli ravishda ixtiyoriy egallanadi. Demak, nutq madaniyatini o'rganish tinimsiz o'qish, shug'ullanish orqali egallanadigan nutqiy hodisadir. Inson butun umri davomida o'z nutqini takomillashtirib boradi. U tilimizning boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali nutqning go'zal, ravon, ifodali, ta'sirchan bo'lishiga intiladi. Zero, go'zal va ta'sirchan so'zlay bilish ham san'at.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Hamrayeva, O. F. Q. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1), 537-544.
2. Hamroyeva, O. F. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI KASBIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4), 985-991.
3. Hamrayeva, O. F. Q. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1), 537-544.
4. Hamidovna, M. K. (2023). ABU NASR FOROBIYNING TA'LIM-TARBIYA BERISHGA OID PEDAGOGIK QARASHLARI. Journal of new century innovations, 35(1), 71-73.